



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 04 | pp. 73-77 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

MINTAQAVIY JIHATDAN EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA IQTISODIY YONDASHUVLAR



Shamurotov Nodirbek Bakbergan o'g'li
Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston mintaqalari iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda ekologik xavfsizlikni ta'minlashda iqtisodiy yondashuvlar ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy instrumentlar tizimi shakllantirildi va mintaqaviy barqarorlikni baholashning ilmiy jihatlari tadqiq etilgan. Mintaqaviy jihatdan ekologik xavfsizlikni ta'minlashda iqtisodiy instrumentlarni tadqiq qilish asosida ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ekologik xavfsizlik, mintaqaviy iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, iqtisodiy instrumentlar, ekologik to'lovlar.

Аннотация. В данной статье проведен научный анализ экономических подходов к обеспечению экологической безопасности в условиях устойчивого развития экономики регионов Узбекистана. Сформирована система экономических инструментов, направленных на обеспечение экологической безопасности, и изучены научные аспекты оценки региональной стабильности. На основе изучения экономических инструментов обеспечения экологической безопасности в региональном контексте разработаны научно обоснованные рекомендации.

Ключевые слова: экологическая безопасность, региональная экономика, устойчивое развитие, экономические инструменты, экологические платежи.

Abstract. This article scientifically analyzes economic approaches to ensuring ecological security in the sustainable development of the economy of the regions of Uzbekistan. A system of economic instruments aimed at ensuring ecological security has been formed and scientific aspects of assessing regional stability have been studied. Based on the study of economic instruments for ensuring ecological security in the regional context, scientifically based recommendations have been developed.

Keywords: ecological security, regional economy, sustainable development, economic instruments, environmental payments.

Kirish

Dunyoda ro'y berayotgan global iqlim o'zgarishlari bevosita mamlakat va mintaqalar iqtisodiyotiga ta'sir qilishi bilan birga ekologik muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Shu jihatdan, bugungi kunda o'zgarishlar zamirida mintaqalarni barqaror rivojlantirishda ekologik muammolarga yechim topish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashning iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga ega. Hozirda mintaqalar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish muammosi global miqyosda ham o'z yechimini kutmoqda.

Bugungi global iqtisodiy o'sish jarayoni tabiiy resurslardan intensiv foydalanish bilan bog'liq bo'lib, bu holat atrof-muhitga salbiy-ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, ekologik xavfsizlikni ta'minlash iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

O'zbekistonda oxirgi yillarda sanoatlashuv jarayonlarining jadallashishi, infratuzilma loyihalarining ko'payishi va aholi sonining yildan-yilga o'sishi tabiiy resursrag bo'lgan iqtisodiy bosimni yanada kuchaytirmoqda. Bu esa ekologik muvozanatning buzilishi, atmosfera havosi ifloslanishi, suv resurslari tanqisligi va yer resurslarining degradatsiya jarayonlarining tezlashishi kabi muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Mintaqaviy iqtisodiyotda ekologik xavfsizlikni ta'minlash nafaqat tabiiy resurslarni muhofaza qilish, balki iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi. Ekologik xavfsizlik iqtisodiy o'sish sur'atlari, investitsiya faolligi va aholi farovonligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai-nazardan iqtisodiy mexanizmlar orqali ekologik xavfsizlikni ta'minlash muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqotning asosiy maqsadi sifatida O'zbekiston mintaqalari iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda ekologik xavfsizlikni ta'minlashda samarali iqtisodiy yondashuvlar va uning ta'sirini baholashdan iborat.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqotda olimlar qarashlarining qiyosiy tahlili, ekologik-iqtisodiy baholash kabi metodlardan foydalanilgan. Tadqiqot ma'lumotlari sifatida xalqaro tashkilotlar hisobotlari, me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalanilgan.

Adabiyotlar sharhi

Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda ekologik xavfsizlikni ta'minlash masalalari borasida nazariy va amaliy yondashuvlar tadqiqotlarda muhim o'rin egallaydi. Xususan, tabiiy resurslardan samarali foydalanish, ekologik barqarorlikni saqlash va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash bo'yicha ilmiy yondashuvlar turli ilmiy maktablar doirasida shakllangan. Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlarni tahliliy o'rganish asosida ekologik xavfsizlikni ta'minlashning iqtisodiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish uchun nazariy asosini yaaratish imkonini beradi.

Xorijlik tadqiqotchilardan X.Deyli tomonidan ekologik barqarorlik masalalari bo'yicha muhim nazariy yondashuvlar ilgari surilgan holda "barqaror iqtisodiyot" konsepsiyasini keltirib o'tgan. Ushbu konsepsiyaga ko'ra, iqtisodiy tizimda tabiiy resurslar imkoniyatlaridan ortiqcha foydalanmaslik g'oyasini bergan. Tadqiqotchi iqtisodiy o'sishni resurslar cheklanganligi bilan muvofiqlashtirish orqali ekologik xavfsizlikni ta'minlash masalasini alohida e'tirof etgan[1].

Ekologik xavfsizlikni ta'minlashda iqtisodiy instrumentlarning zarurligini ilmiy jihatdan asoslab bergan tadqiqotchi olimlardan biri sifatida T.Titenberg hisoblanadi. T.Titenberg tadqiqotlarida ekologik soliqlar, kvotalar va bozor mexanizmlari asosida atrof-muhitni muhofaza qilishning samarali mexanizmlari sifatida qaragan. Shuningdek, tadqiqotchi tomonidan iqtisodiy rag'batlantirish vositalari bevosita ekologik ifloslanishni kamaytirishda ma'muriy choralarga nisbatan samaraliroq ekanligini ta'kidlab o'tgan[2].

Xorijiy olimlardan D.Pirs va R.Terner tomonidan ekologik xavfsizlikni ta'minlashda iqtisodiy yondashuvlar ekologik iqtisodiyot nazariyasi doirasida ham keng o'rganilgan. Xususan, D.Pirs va R.Terner tomonidan ishlab chiqilgan ekologik iqtisodiyot

konsepsiyasida tabiiy resurslardan samarali foydalanish va ekologik xarajatlarni iqtisodiy qarorlar qabul qilish jarayoniga kiritishning zarurligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, ekologik xarajatlarni yuqoriligi iqtisodiy sub'ektlarning ekologik ma'suliyatini yanada oshirish mumkin[3].

MDH mamlakatlari olimlari ham ekologik xavfsizlik masalalariga alohida to'xtalib o'tgan holda nazariy va amaliy tavsiyalarni bergan. Xususan, N.F.Reymers mintaqalarda tabiiy resurslardan foydalanish jarayonida ekologik va iqtisodiy manfaatlarni uyg'unlashtirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslagan. Izlanishlari natijasida ekologik xavfsizlikni ta'minlashda iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tibor qaratgan[4].

V.V.Novikov tomonidan amalga oshirilgan ilmiy izlanishlarda ekologik siyosatning iqtisodiy mexanizmlari va ularning mintqaviy iqtisodiyotga ta'siri tahlil qilingan bo'lib, tadqiqotchi olim iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlari ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab o'tgan[5].

O'zbekistonlik olimlar ham mintaqaviy jihatdan ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanish masalalari keng tadqiq etilgan. Jumladan, S.G'.G'ulomov tadqiqotlarida tabiiy resurslardan oqilona foydalanish iqtisodiy barqarorlikning muhim sharti ekanligi ta'kidlangan. Iqtisodiy mexanizmlar orqali tabiiy resurslardan samarali foydalanishni rag'batlantirish zaruriyati tavsiya etilgan[6].

Zamonaviy tadqiqotlarda "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasida ekologik xavfsizlikni ta'minlashning muhim nazariy asoslaridan biri sifatida qaralmoqda. Xususan, BMT va Jahon banki tomonidan ishlab chiqilgan tadqiqotlarda iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilingan[7].

Tahlil va natijalar

Mintqaviy jihatdan ekologik xavfsizlikni ta'minlash dolzarb ahamiyatga ega bo'lib, shu jihatdan, ekologik xavfsizlikni ta'minlashda iqtisodiy yondashuvlarni ilmiy jihatdan o'rganish va tadqiq etish muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda Yer sayyorasida ekologik muammolar yildan-yilga ortib bormoqda, shu bois, ekologik xavfsizlikni ta'minlashda Davlat dasturlarini qabul qilish bilan birga istiqbolli dasturlarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyatga ega.

Birlashgan millatlar tashkiloti tomonidan so'ngi yillarda va 2019-yildan beri emissiyalar va atrof-muhitga ta'sirini sezilarli darajada kamaytirishga erishdi. Issiqxona emissiyasi gazlari 2023-yildagi 1,54 million tonna CO₂ ekvivalentidan 2024-yilda 1,43 dan 7,2 foizga kamaydi. 2019-2024 yillarda umumiy emissiyalarning 29,7 foizga kamayishga erishilgan bo'lsa, aholi jon boshiga issiqxona gazlari emissiyasi 2023-yildan 2024-yilgacha 4,2 foizga kamaydi. 2019-2024 yillarda 29,5 foizga kamaydi. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan chiqindilar hajmi 2023-yildan 2024-yilgacha 5,74 foizga kamaydi[8].

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, tabiiy resurslar va ekotizimlar jahon iqtisodiyotining katta qismi uchun asos hisoblanadi. Masalalan global iqtisodiy resurslarning 50 foizdan ortig'i (44 trln. dollar) tabiat resurslariga bog'liqligi qayd etilgan[9].

Shu bilan birga, ekologik muvozanat buzilganda iqtisodiy yo'qotishlar sezilarli darajada oshishi mumkin. Ayrim mamlakatlarda ekologik degradatsiyaning iqtisodiy zarari yalpi ichki mahsulotning 3-6 foizgacha o'sishi kuzatilgan[10].

Oxirgi yillarda xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda jahon iqtisodiyotining katta qismi ekologik omillarga bog'liq bo'lib, iqtisodiy o'sishni atrof-muhit muhofazasi bilan uyg'unlashtirgan holda olib borish zaruriyati ko'zga tashlandi. Bunday yondashuvlar ekologik xavfsizlik iqtisodiy siyosatning asosiy tarkibiy qismiga aylanish kerakligini yaqqol namoyon etdi.

Bugungi kunda zamonaviy xalqaro tashkilotlar tomonidan berilgan ma'lumotlar ekologik xavfsizlikning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatini raqamlar orqali ham tasdiqlamoqda. Xususan, Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, dunyo aholisining katta qismi ekologik xavflarga duch kelmoqda. Masalan, Yer sharida 2,3 milliard kishi havo ifloslanishi me'yorida yuqori bo'lgan hududlarda istiqomat qilmoqda. Ushbu holat aholi salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, iqtisodiy samardorlikni pasaytiradi. Ekologik xavfsizlikning ijtimoiy ahamiyati aynan shu vaziyatda namoyon bo'ladi[11].

Birlashgan millatlar tashkiloti va xalqaro tashkilotlar hisobotlariga ko'ra, tabiiy resurslardan samarasiz foydalanish iqtisodiy yo'qotishlarning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Masalan, ekologik zararlar global iqtisodiyotga katta ta'sir ko'rsatib, ayrim sohalarda milliardlab dollar yo'qotishlarga sabab bo'lmoqda.

So'nggi yillarda iqtisodiy o'sish fonida ekologik ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liq jarayonlarida jiddiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. 2025-yil holatiga ko'ra, jahon iqtisodiyotining 92 % qismida iqtisodiy o'sish va SO2 chiqindilari o'rtasidagi bog'liqlik qisqargan, ya'ni iqtisodiy o'sishni ekologik zararlarsiz ta'minlash imkoniyatlari ortib bormoqda[12].

Yuqorida keltirib o'tilgan ushbu holatlar ekologik xavfsizlikni ta'minlash orqali iqtisodiy rivojlanishni saqlab qolish mumkinligini ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar

Xulosa o'rnida aytish joizki, mintaqaviy jihatdan ekologik xavfsizlikni ta'minlash bugungi kunda xalqaro va milliy miqyosda katta ahamiyatga ega. Olib borilgan tadqiqot natijalari shundan dalolat beradiki, mintaqaviy jihatdan ekologik muammolar yildan-yilga ortib bormoqda. Shu zaylda ekologik muammolarning ortishi insoniyatning yashashiga iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatdan xavflarni ortishiga sabab bo'ladi. Izlanishlar natijasida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- mintaqaviy jihatdan ekologik xavfsizlik choralarini ko'rish bo'yicha Davlat dasturlarini ishlab chiqish va bu borada nazorat mexanizmlarini kuchaytirish;
- mintaqalarda ekologik toza texnologiyalarni joriy qilgan korxonalar uchun soliq imtiyozlarini berish;
- mintaqalarda energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan investitsiyalarni subsidiyalash;
- ekologik standartlarga javob beruvchi ishlab chiqarish sub'ektlarini moliyaviy rag'batlantirish;
- chiqindilarni qayta ishlashga ixtisoslashgan korxonalarni qo'llab-quvvatlash va boshqalar.

Ushbu ilmiy jihatdan ko'rsatib o'tilgan tavsiyalarni amalga oshirilishi iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlarni joriy etilishi mintaqalarda ekologik xavflarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Daly H. Beyond Growth: The Economics of Sustainable Development. Boston: Beacon Press. 1996.
2. Tietenberg T. Environmental and natural resource Economics. Boston: Addison Wesley, 2003.
3. Pears D., Turner R. Economics of Natural Resources and the Environment. – London: Harvester Wheatsheaf, 1990.
4. Реймерс Н.Ф. Природпользование. – Москва: Мысль, 1994.
5. Новиков В.В. Экономика природопользования. Москва: ЮНИТИ, 2001.
6. Ғулломов С.Ғ. Иқтисодиёт ва табиий ресурслардан фойдаланиш. Тошкент, 2005.
7. World Bank. World Development Report. – Washington, 2020
8. <https://wedocs.unep.org/items/7d67f862-0832-44b6-937f-c25694bd1754>
9. <https://www.worldbank.org/en/news/feature/2024/05/22/to-grow-strong-grow-green>
10. <https://openknowledge.worldbank.org/entities/publication/afe424bf-b96e-585f-95bd-1b9752349ea4>
11. <https://www.worldbank.org/ext/en/topic/environment/circular-economy-and-pollution-management>
12. <https://www.theguardian.com/environment/2025/dec/11/economic-growth-no-longer-linked-to-carbon-emissions-in-most-of-the-world-study-finds>

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

